

# «ТАРИХИЙ МАНБАШУНОСЛИК, ТАРИХНАВИСЛИК, ТАРИХ ТАДҚИҚОТЛАРИ МЕТОДЛАРИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИННИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ»

мавзуидаги Республика XIV илмий-назарий  
конференциясининг материаллари

14

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ШАРҚШУНОСЛИК  
УНИВЕРСИТЕТИ**

**ТАРИХИЙ МАНБАШУНОСЛИК,  
ТАРИХНАВИСЛИК, ТАРИХ  
ТАДЌИҚОТЛАРИ МЕТОДЛАРИ  
ВА МЕТОДОЛОГИЯСИННИНГ  
ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ**

**Республика XIV илмий-амалий  
конференция материаллари**



**Тошкент – 2022**

“Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари” // Республика XIV илмий-амалий конференция материаллари. 14-илмий тўплам [Тошкент давлат шарқшунослик университети. Масъул муҳаррир тар.ф.д., проф. М.М.Исҳоқов] Тошкент: 2022.

Ушбу тўпламда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 7 мартағи 101-Ф-сон фармойиши, Ўзбекистон ОЎМТ Вазирлигининг 2022 йил 14 мартағи 97-сон буйруғи, ТДШУ ректорининг 2022 йил 17 мартағи 79-УМ-сонли буйруғи ижросини таъминлаш мақсадида 2022 йилнинг 21 апрель куни Тошкент давлат шарқшунослик университетида ўтказилган “**Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари**” мавзусидаги анъанавий Республика илмий-амалий конференциясининг 14-навбати материаллари эълон қилинмоқда.

Анжуман ТДШУ илмий-тадқиқотлар режаси асосида шартномавий ҳамкор ташкилотлар – ЎзР ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, ЎзР ФА Тарих институти, ЎзР ФА Темурйилар тарихи давлат музейи, ЎзР ФА Ўзбекистон тарихи давлат музейи, Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Қатағон қурбонлари хотираси давлат музейи билан ҳамкорликда ташкил этилди.

**Масъул муҳаррир:**

*Тарих фанлари доктори, профессор М.М. Исҳоқов*

**Тақризчилар:**

*Тарих фанлари доктори, профессор Ж.Х. Исмоилова*

*Тар.ф.н., доц. Р.Р. Алимова*

**Таҳрир гурухи:**

**Одилов Б.А., Мадраимов А.А.,**

**Худойназаров И.Б., Бекмурадов С.Т.**

Тошкент давлат шарқшунослик университетининг 2022 йил  
30 апрель куни бўлиб ўтган 9-сонли навбатдан ташқари  
Кенгаши қарорига мувофиқ нашрга тавсия қилинган.

## СҮЗ БОШИ

Хурматли илмий анжуман иштирокчилари!

Университетимиз “Марказий Осиё халқлари тарихи ва манбашунослиги” кафедрасининг 2009 йилда ташкил этилган “Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқоти методи ва методологиясининг долзарб масалалари” мавзуидаги конференцияси анъанавий йиллик конференцияга айланиб, бугун унинг XIV навбати минбари атрофида тўпланиб турганимиздан фоят мамнунман. Ушбу конференция ҳар йили тарихимизнинг турли муаммоли масалаларини, айниқса манбашунослик ва тарихшунослик сингари тарих фанининг ҳал қилувчи соҳалари бўйича долзарб масалаларни тадрижий равишда ўртага қўйиб, уларнинг ечимлари ҳақида Республикамиз илмий жамоатчилиги фикрларини ўз атрофига тўплаб келмоқда. Ушбу конференция материаллари йиллик жилдларига Республикамиз етакчи тарихчилари, академик олимлардан тортиб талабаларгача, ҳар йили юзлаб мақолалар келиб тушади. Бу ҳол конференциянинг Республикамиз илмий ҳаётидаги юксак ўрни ва нуфузидан дарак беради.

Дунё миқёсида барча халқларни ташвишга солиб турган COVID-19 туфайли Республикамизда ҳам бу хавфли қасалликнинг олдини олиш бўйича жиддий ва тизимли чоралар қўриб турилган “Ҳамма уйда” шароитларда ҳам мамлакатимиз илмий ҳаёти бирлаҳза ҳам тўхтамаганидек, конференция ҳам тўхтаб қолмади. Айни шу мураккаб шароитларда унинг XII, XIII навбатлари ўтказилган эди.

Бу йилги конференция дастурида ҳам тарихимизнинг манбашуносликка оид 40 дан ортиқ мақолалар ўрин олган. Тарих фанини манбаларсиз тасаввур этиш мумкин эмаслиги ҳаммамизга маълум. Республикамиз қўллэзма фондларидағи бекиёс бой мерос устида олиб борилган ва бугун давом этажган тадқиқотлар қанчалик муваффақиятга эришган бўлмасин, ҳали бу соҳада улкан вазифалар олдинда. Ўз навбатида, бу янги янги фидойи манбашунос кадрлар авлодлари этишиб чиқишини талаб этмоқда.

“Мозийга қайтиб” иш қўрмоқ қабилида дастурдаги тарихшуносликка оид 20 дан ортиқ маърузалар фан истиқболи ва ўтмиш хатоларини тақрорламаслик учун муҳим. Айниқса, минтақамизда тарих фанининг холислиги, ҳаққонийлиги, манбалар асосида далил ва исботлилигини таъминлаш долзарб вазифа бўлиб турган вазиятда тарихшуносликнинг роли катта.

Конференция дастурида умумий тарихий жараёнлар, этнология, тарих тадқиқоти, таълими методи ва методологиясига оид ўнлаб маърузалар ҳам ўрин олган. Булар тарихнинг турли амалий ва назарий масалалари учун муҳим.

Бу йилги конференция дастуридан тасаввуф тарихи, тасаввуф манбашунослиги, фалсафаси, тасаввуфшунослик, тасаввуф тариқатларининг айрим йирик вакиллари мероси ҳақида бир қатор мақолалар ҳам ўрин олган. Ўз навбатида манбашуносликнинг бу соҳасига жиддий эътибор берилаётгани алоҳида дикқатга сазовор.

Конференция Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти, Тарих институти, Санъатшунослик институти, Ўзбекистон тарихи, Темурийлар тарихи музейлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамаси ҳузуридаги Қатағон қурбонлари тарихи музейи кабилар билан ҳамкорлик асосида ўюштирилмоқда. Бу ҳол таълим ва фан интеграциясининг ёрқин ифодасидир.

Конференция ишига муваффақият тилайман, қатнашчиларга омад ёр бўлсин.

*Тошкент давлат шарқшунослик университети ректори  
Г.Ш. Рихсиева*

тўпламни қўлларига олиб, арз ва шикоятларни ҳал этишда унга караб иш кўрадиган бўлганлар. Бу олий қозихонада иш кўрилаётганда амирнинг ўзи бош бўлиб турган. Шу боисдан мазкур ташкилотни амирнинг олий суди деб аташ мумкин. Бундан ташқари, судда иш кўрилаётганда даъвогарнинг шахсан ўзи иштирок этиши талаб қилинган. Туманлар ва катгароқ қишлоқларга (қасабаларга) қозилар тайинлаш ҳам у киритган янгиликлардан бўлди.

Шундай қилиб, Амир Шоҳмурод даврида Бухоро амирлигига янги суд тизими: қасаба, туман, вилоят қозилари, Бош қози ҳамда кирқ аълам суди вужудга келиб, энг олий қози амирнинг ўзи эди. Шариат ҳуқуқи асосида Шоҳмурод тузган қоидалар тўплами диққатга сазовордирки, уни излаб топиш ва илмий жамоатчиликка етказиш олимларимиз олдидаги вазифалардан бўлиб турибди. Шу ўринда яна Амир Шоҳмуроднинг суд ислоҳотлари, айниқса, катта аҳамиятга молик эканлигини айтиб ўтиш лозим. У амалга оширган ишлар ичидаги қатаси Самарқанд шаҳрининг кайта тикланиши бўлди. Эрон шохи Нодиршоҳнинг XVIII аср ўрталаридағи босқини, етти йил давом этган ўзаро урушлар ҳамда қалмоқлар зулмидан қочиб, мол чорвалари билан Туркистонга кўчиб келган қозоқларнинг воҳаларга жойлашиб, уларни талон-торож қилишлари бир қанча шаҳар, қишлоқлар ҳаётини издан чиқариб юборди.

Жумладан, Самарқанд шаҳри хувиллаб қолди. 1752 йилларда шаҳарда жон эгаси қолмаган эди. Шунинг учун, гарчи Мангит ҳукмдорларининг биринчиси бўлган Раҳимбий оталиқ Равотхўжа бандини тузатиб, шаҳарга сув оқизган бўлса-да, одамлар йўқлигидан шаҳар жонланиб кетмади. “Самарқанднинг ҳозирги ободончилиги, - деб ёзган эди С.Айний бу ҳакда, - 1780 йил, яъни Шоҳмуродбийнинг беклигидан бошланган бўлиб, 1809 йилларда бир шаҳар йўсинига киргизилди”. Бу Шоҳмуродбийнинг аҳолини кўчириб жойлаштириш сиёсати билан боғлиқ эди. Бунинг натижасида Ўратепа, Ховос, Тошкент, Андижон, Каттакўргон, Термиз ва бошка ерлардан аҳолининг Самарқандга мажбурий кўчириб келтирилиши шаҳарнинг ривожланишига сабаб бўлди. Марказий Осиёning тарихини ўрганган деярли барча тарихчилар Амир Шоҳмуроднинг давлат бошқарувчи соҳасидаги фаолиятига юқори баҳо берадилар.

Тарихчи олим Аҳмад Доңиш эса, уни халифа Умар билан бир каторга куйиб. “амирлик гиламни камбагаллик кийими билан безади, жаҳон боғидан душманлик ва ёмонлик томири билан сугуриб ташлади ва адолат нихолларини ўтказди”, деб юксак баҳолайди. Мангитлар сулоласининг амирлари изчил туриб, мамлакатни бирлаштириш, давлат ҳокимиятини марказлаштириш сиёсатини олиб борган бўлсалар-да, ўзбек қабила ва уруғ бошликларининг кучайишлари ва мустақилликка интилишлари сиёсий тарқокликни тобора чукурлаштириди.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Аҳмад Маҳдуми Доңиш. Рисола ё муҳтасаре ах таърихи салтанати хонадони мангитийя”. – Душанбе: 1991
2. Мирза Абдалазим Сами. Таърих-и салатин-и мангитийя. – Москва: Изд-во Восточной литературы, 1962.
3. Солиев П. Мангитлар салтанати даврида Бухоро ўлкаси. – Тошкент: Ўзбекистон давлат нашириёти, 1925.
4. Фитрат. Давраи ҳукмрони Амир Олимхон. – Душанбе: 1991.
5. Садри Зиё. Наводири Зиёяя. – Душанбе: Адиб, 1991.
6. Temirov F., Islomov D. Sadreddin ayniy – zamondoshi fitrat haqida // Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 1. - S. 1349-1354.
7. Temirov F. Xalikova N. From the history of foreign policy and development of diplomacy in the emirates of bukhara // Scientific progress. - 2021. - T. 2. - №. 1. - S. 1276-1282.

## O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY MUZEYLARNING TASHKIL TOPISHI VA TARAQQIYOT ISTIQBOLLARI

B.B.Boltayev

*BDU Buxoro tarixi kafedrasи katta o'qituvchisi*

**Аннотация:** Уибу мақолада юртимиздаги музейларнинг ёш авлодни комил инсон сифатида тарбиялашдаги ўрни, ҳамда тарихимизни теранроқ таҳлил этишида музей экспонатларининг манбаъвий аҳамиятини давлатимиз томонидан ишлаб чиқарилган қонунлар, қарорлар асосида илмий нуқтаи назардан таҳлил қилишига ҳаракат қилинганд.

**Аннотация:** В данной статье ставится задача проанализировать роль музеев в воспитании подрастающего поколения как совершенной личности, а также исходное значение музейных экспонатов в более глубоком анализе нашей истории с научной точки зрения на основе законов и решений, выработанных нашим государством.

**Abstract:** This article aims to analyze the role of museums in educating the younger generation as a perfect personality, as well as the initial significance of museum exhibits in a deeper analysis of our history from a scientific point of view based on the laws and decisions developed by our state.

**Kalit so'zlar:** Jihozlar, eksponatlar, eksposiziya, me'mor, mohir usta, uy-muzeyi, Politexnika muzeyi, qurol-aslahalar, musiqa asboblari, Olimpiya shon-shuhrat muzeyi, kolleksiya, takomillashtirish.

**Ключевые слова:** Оборудование, экспонаты, экспозиция, архитектор, ремесленник, дом-музей, Политехнический музей, оружие, музыкальные инструменты, музей олимпийской славы, коллекция, благоустройство.

**Keywords:** Equipment, exhibits, exposition, architect, craftsman, house-museum, Polytechnic Museum, weapons, musical instruments, Olympic Glory Museum, collection, landscaping.

Muzeylelar faoliyatini insoniyatning tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanib borishi, qo'lga kiritgan yutuqlari hamda qoldirgan boy madaniy - mana'naviy merosi xususida juda katta bilimlar beradi. Muzeylelar faoliyatini o'rghanish natijasida kelib chiqadigan estetik badiiy idrok qobiliyati talabalarda olamni, undagi mavjudotlar, voqeа-hodisalarini, atrof muhitdagi jarayonlarni turfa shaklarda qaytadan aks ettirishga havas uyg'otadi. Bu muzeylarda xalqning ko'p yillik me'moriy tajribasi, bilimi, malakasi, madaniyati va ma'naviyati yaqqol namoyon bo'ladi. Ularning qurilish uslubidan tortib ishlataligil naqsh va bo'yoqlariga tomoshabinda hayrat va zavq hissini uyg'otadi. Ajdodlarimiz va ularning davomchilar shu zamonnинг mohir usta va me'morlari san'ati butun dunyo ahlini o'ziga rom etgan holda o'zbek xalqining yuksak ma'naviyati va madaniy hayotidan darak berib turadi.[1,5-6]

Dunyodagi barcha xalqlar kabi o'zbek xalqi ham juda qadim davrlardan buyon xalq ruhiyati, turmush sharoitlarini o'zida aks ettiruvchi amaliy san'at asarlari yaratib kelgan. Tabiiyki, moddiy madaniyat mahsuli bo'lgan xalq amaliy san'at asarlari ijtimoiy hayotning bir bosqichidan ikkinchisiga meros bo'lib o'tib, avlodlarning beqiyos madaniy boyligiga aylanib boraveradi. 1992 yil noyabr oyida Buxoroda O'zbekistonda birinchi marta temirchilik muzeyi ochildi. 1992 yil dekabrda Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida ochilgan xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining Uy-muzeyi birinchi mehmonlarni qabul qildi. 1993 yil 3 sentyabrda Toshkentda o'zbek ayollarini ichidan chiqqan birinchi huquqshunos olima akademik Xadicha Sulaymonova muzeyi ochildi. 1993 yil 1 sentyabrda Toshkent Davlat texnika universiteti qoshida O'zbekistonda birinchi bo'lib Politexnika muzeyi faoliyat boshladidi. 10 sentyabrda Toshkentda o'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboyeva muzeyi, 21 sentyabrda esa Navoiy viloyatining Tomdi tumanida mashhur cho'pon, ikki marta Mehnat Qahramoni, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining faxriy akademigi Jaboy Balimanovning hayoti va mehnat faoliyati haqida ma'lumot beruvchi muzeyi, shu yil noyabr oyida Toshkentda ochilgan O'zbekiston Xalq ta'limi tarixi muzeyi o'z muxlislarini kutib oldi. 1994 yil may oyida Toshkent shahrida Toshkent to'qimachilik va yengil sanoati instituti muzeyi, oktyabrda O'zbekiston xalq rassomi Usta Muhiddin Rahimov va uning o'g'li Akbar Rahimovlarning ko'rgazmali muzeyi ochildi. Toshkentda 1996 yil mayida O'zbekiston gidrometeorologiya xizmati muzeyi ishga tushdi. Shu yilning 30 noyabrida Toshkentda ochilgan Qimmatbaho qog'ozlar bozori tarixi muzeyiga tashrif buyurgan tomoshabinlar birinchi marta turli davrlarga sayohat qilish

sharafiga muyassar bo‘ldilar. 1996 yil 18 oktyabrda Toshkentda ochilgan Temuriylar tarixi Davlat muzeyi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ma’rifiy va ma’naviy ishlar borasida yirik tarixiy va madaniy yodgorlik, ilmiy tafakkur markazi bo‘lib qoldi. Muzey eksponatlari juda katta tarixiy qimmatga ega bo‘lib, Temuriylar davri ruhini beradi. Muzeysiga qo‘yilgan tilla buyumlar, qurol-aslahalar, lashkarboshi va oddiy jangchilarning kiyim - boshlari, musiqa asboblari, o‘scha davrga xos jihozlar, Amir Temur, Bobur qo‘lyozmalari, Ulug‘bekning astranomik qurilmalari va boshqa madaniy boyliklar shular jumlasidandir.

1996yil 1 sentyabrda Toshkentda Osiyoda noyob va yagona bo‘lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi ochildi. Bu muzey O‘zbekistonlik sportchilarning turli jahon musobaqalarida qo‘lga kiritgan muvaffaqiyatlarini, medallarini faqat namoyish etadigan joygina bo‘lib qolmay, balki mamlakatimizda sport harakatini rivojlantirish markazi ham bo‘lib qoldi.[2,780-782]

Respublika Qurolli Kuchlari Markaziy muzeyi o‘z faoliyatini 1965 yilda boshlagan. Muzeyning eksposiziyalari dastlab hozirgi Markaziy ofiserlar saroyi binosiga joylashtirilgan edi. 1975 yilga kelib esa, muzeyning maxsus binosi 4 oy ichida qurilib, foydalanishga topshirildi.[6,13-15] Bugungi kunda umumiyl maydoni 3 ming kvadrat metrni tashkil etgan muzey binosida 7 mingdan ziyod tarixiy eksponatlari joylashtirilgan. 1997 yilda muzey eksposiziyalari tubdan yangilanib, qayta ta’mirlandi. «Qoraqalpog‘iston respublikasi O‘lkashunoslik muzeyi» bundan 90 yil avval tashkil etilgan. O‘tgan davr mobaynida u madaniy – ma’rifiy markazga aylandi. Markaziy Osiyodagi madaniyat va ma’rifat muassasalari ichida birinchi qaldirg‘ochlardan hisoblangan, ushbu dargoh xalq tarixi muzeylari, o‘simliklar va tabiat olamini targ‘ib etib kelmoqda. 2004 yilning kuzida muzeyning 75 yillik yubileyi nishonlandi. Shu munosabat bilan eksponatlari, kolleksiyalar reklamasining turli shakllari, afishalariyu tavsiyalar, katologlar, muzey ramzi tushirilgan nishonlar tayyorlandi. I.V. Saviskiy nomli Davlat san‘at muzeyi: Bu muzey musavvir, arxeolog, haykaltarosh I.V.Saviskiyning nomini Qoraqalpog‘istonda alohida mehr-muhabbat bilan tilga olishadi. U butun umrini Qoraqalpog‘iston xalqi san‘atini o‘rganish, boyitishga bag‘ishlaydi. 2002 yilda hukumatimiz tomonidan 1milliard so‘mlik mablag‘ ajratildi. Jahonning eng zo‘r muzeylari bilan bemalol bellasha oladigan bino butunlay qurib bitkazildi. Zamonaliviy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Xalqimizning o‘ziga xos san‘atini qadim o‘tmishdan tortib, hozirgi kunimizgacha bo‘lgan taraqqiyoti tarixi eksponatlarda aks ettirilgan Savisskiydan meros bo‘lib qolgan san‘at esa muzeyning bebafo mulkiga aylantirildi.[3,12]

Mamlakatimizda bu muzeylardan tashqari yana ko‘plab katta-kichik muzeylar bo‘lib, ular xalq madaniyati va ma’naviyati yo‘lida faoliyat yurgizmoqda. Yurtimizda ularning faoliyatini yanada yaxshilash maqsadida ko‘plab qarorlar qabul qilindi. O‘zbekistonda muzeylar rivojiga 1998 yil 12 yanvarda qabul qilingan “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risida”gi qonun juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi, shundan keyin muzeylar davlat muhofazasiga olindi, hamda muzeylarni yanada rivojlantirish haqida dastur ishlab chiqildi va ular davlat byudjeti tomonidan qo‘llab quvvatlandi. 1999 yil muzeylar hayotidan xabar beruvchi “Moziydan sado” jurnali tashhil etildi. Bu jurnal uch tilda o‘zbek, rus, ingliz tilida chop etila boshlandi.[4] Bundan tashqari muzeylar faoliyati to‘g‘risida ko‘plab normativ hujjatlar va qonun-qarorlar qabul qilindi. 2008 yil 12 sentyabrda qabul qilingan “ Muzeylar to‘g‘risidagi qonuni O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqimiz ma’naviy – axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixini o‘rganish, avaylab asrash, boyitib borish va dunyoga olib chiqish imkonini berdi. 2009 yilda Toshkentda aloqa tarixi muzeyi ish boshlagan bo‘lsa, 2015 yilda esa mintaqadagi ilk bor Politexnika muzeyi ochildi.[7] Bu boradagi ishlar tizimli davom ettirilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 25 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov ko‘p yillar davomida faoliyat olib borgan Toshkent shahridagi Oqsaroy qarorgohi muzeysiga aylantirildi va 2019 yil 30 yanvarda ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.[5,3]

Mamlakatimizda yana “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017-yil 31-maydagi PQ-3022-son qarorini ijro etish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra «2017 - 2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-

tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Davlat muzeylarining ishlab chiqiladigan yangi konsepsiyalari, muzey ashyolarini ishonchli saqlash, tashrif buyuruvchilar, xususan, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko'rsatishni rivojlantirish, arxitektura-rejalashtirish, interyer, dizayn va landshaft yechimlariga e'tibor qaratgan holda har bir muzey binosining eskit loyihasini muzeyning yo'nalishi va mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda ishlar olib borish to'g'risida qonun qabul qilindi.[8]

Mustaqillikga erishganimizdan so'ng ko'plab sohalar kabi muzeyshunoslik va muzeylarga bo'lган e'tibor ham kuchayib ularni qayta ta'mirlash va yangi muzeylarni tashkil etish kabi ishlar olib borildi. Muzeylar moziydan sado beruvchi va madaniyatimizni saqlovchi dargoh hisoblanib kelajagimiz uchun katta ahamiyatga ega. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, yurtimiz tarixini, ko'p yillik merosini o'zida mujassam etgan muzeylarni tashkil etish bo'yicha bir qator amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Jumladan, 1994 yilda "O'zbekiston tarixi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan O'zbekiston tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Natijada yurtimiz tarixini o'zida to'liq aks ettiruvchi 3 mingdan ortiq asori atiqalar va noyob eksponatlarga ega muzey tashkil topdi. 1997 yilda o'zining salohiyati hamda badiiy ijod sohasida mutaxassis kadrlarni yetkazib beruvchi Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan oliv ta'lim muassasasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil etilib, Institut qoshida esa ilk bor muzeyshunos mutaxassis kadrlarni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yo'nalish ochildi. Bu albatta, O'zbekiston tarixida muzeyshunoslikning fan sifatida rivojlanishi uchun qo'yilgan tamal toshi bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Yosh avlod qalbida ma'naviy merosimizga nisbatan hurmat tuyg'usini uyg'otishda muzeylarning o'rni beqiyos, binobarin, bugungi kunda muzeylar nafaqat xalqimiz tarixidan hikoya qiluvchi osori-atiqalarni saqlaydigan, namoyish qiladigan muqaddas maskan, balki ta'lim tizimi rivojida, navqiron avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviyat dargohi hamdir, muzeylar misolida yaratilgan ekspozisiyalar va doimiy ko'rgazmalarini tashkil etish yuqoridagi vazifalarni bajarish dolzarb ekanligini ko'rsatib turibdi. 2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi, jumladan, «Faol tadbirdorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili» Davlat dasturida ham turizmni rivojlantirish bo'yicha asosiy vazifalar belgilab olingan: mahalliy aholining mamlakat bo'ylab sayohatlarini rag'batlantirish, sayyoohlardan uchun qulay infratuzilma yaratish, hududlarning sayyoohlilik salohiyatini keng targ'ib qilish orqali ichki turizmni tizimli rivojlantirish; xorijiy sayyoohlarning tashrifi uchun keng sharoitlar yaratish, ularning sayohat dasturlarini mazmunan boyitish va ko'rsatiladigan xizmatlar turlarini kengaytirish hisobiga turizmni jadal rivojlantirish; mamlakatimizdagi moddiy madaniy meros ob'ektlarida va ular atrofidagi ob'ektlarda tegishli infratuzilmani shakllantirish, amalga oshiriladigan diniy marosimlar uchun tegishli sharoitlarni yaratish orqali ziyorat turizmini sohaning istiqbolli yo'nalishi sifatida rivojlantirish.[10]

Ta'kidlash joizki, muzeyshunoslikka berilgan yuksak e'tiborning samarasini o'laroq mazkur sohada quyidagi misli ko'rilmagan ishlar amalga oshirildi:

- muzeyshunoslik sohasini rivojlantirish, takomillashtirishga doir qator qonun hujjatlari qabul qilindi hamda muzeylar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.

- muzey ishini samarali yo'lga qo'yish hamda muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida jamg'arma tashkil etildi.

- mustaqillik yillarida O'zbekiston muzeylarida saqlanayotgan moddiy va madaniy merosimizni keng jahon ommasiga namoyish etish bo'yicha qator ko'rgazmalar jahon muzeylarida tashkil etildi.[11,27-29]

Yuqorida sanab o'tilgan soha rivojidagi muvofaqiyatlar O'zbekistonda muzeyshunoslik sohasini taraqqiy etishiga mustahkam zamin yaratgan omillardir. Tashkil etilgan va etilayotgan ko'plab yangi muzeylar yosh avlodni tariximiz, moddiy va madaniy merosimizni naqadar chuqur ildizga egaligini singdirgan holda, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ulari bilan tarbiyalashga xizmat qilmoqda O'zbekiston muzeylarining mustaqillik davridagi faoliyati va taraqqiyoti bo'yicha bugungi kungacha umumlashtiruvchi asarlar deyarli mavjud emas. M.Bekmurodov, M.Rashidova, R.Almeyev, L.Yu.Mankovskaya D.Kuryazova, G.Fuzailova, M.Hasanova, I.Ihalov[12,255] va boshqalar

yaratgan, o'zbek hamda rus tillarida chop etilgan maqola, o'quv qo'llanma va darsliklarda mustaqillik davridagi muzeylar faoliyatiga bag'ishlangan. O'zbekiston muzeylariga bag'ishlangan yirik tadqiqotlar R.V.Almeyev tomonidan yaratilgan bo'lib, ularda tanlangan mavzu Buxoro muzeylari misolida ma'lum darajada o'rganilgan.[13,268]

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Бекмуродов М.Б. Раширова М.Х. Музейшунослик. - Тошкент: М.Рашидов, 2006. - Б.6-7.
- 2 Boltaev, B. (2020). EDUCATIONAL METHODS AIMED AT CREATING A SENSE OF HARMONY AMONG CHILDREN IN THE ACTIVITIES OF ART CIRCLES OF ORPHANAGES. Theoretical & Applied Science, (5), 780-782.
3. Ўзбекистонда илк музейлар фаолияти.//www.Lext.uz
4. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 26-ноябрьдаги ЎРҚ-732-сон “Музейлар тўғрисидаги” ги Ўзбекистон Республикаси қонунига қўшимчалар киритиш ҳаққида”ги қонуни. <https://lex.uz/docs/5744524>
- 5.Boltayev B. Новый этап развития музеев и музейного дела в Узбекистан //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 5. – №. 5.
- 6.Boltayev, Bobir. "O'ZBEKISTONDA MUZEY ISLOLOTI YO'LIDA." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 6.6 (2021).
7. Музейшунослик ривожининг янгиликлари. .//www.islom karimov.uz
8. “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир чора тадбирлар тўғрисида”2017-йил 31-майдаги ПҚ-3022-сон қарорини ижро этиш юзасидан Вазирлар Маҳкамаси қарори. //www.lex.uz
- 9.Boltayev, B. (2021). Respublikamiz muzeylarining taraqqiyotida zamonaviy innovatsiyalar: Qo'llanmalar asosida. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 3(3).
10. 2017-2021йиллар Ўзбекистон республикасини ривожлантиришнинг бешта устивор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони 1 илова //http:// www/lex/uz
- 11.Boltayev, B. (2020). Yurtimizda muzeylar faoliyatini qo'llab quvvatlashning yangi bosqichga ko'tarilishi (Buxoro misolida): Qo'llanmalar asosida. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
12. Бекмуродов М., Раширова М. Музейшунослик. – Тошкент, 2006. – 102 б.; Илалов И. Музееоведение. – Ташкент: Мусиқа, 2006. – 357 с.; Kuryazova D.T. Muzey ishi tarixi va nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. – 160 b; Фузаилова Г., Хасanova М. Музееоведение. – Ташкент: Фан ва технологиялар босмахонаси, 2008. – 192 с.; Маньковская Л.Ю. Бухара: Музей под открытым небом. – Ташкент: Издательско-полиграфический дом имени Гафура Гуляма, 1991. – 255 с.
13. Альмеев Р. Бухара – город музей. – Ташкент: Фан, 1999. – 205 с.; Альмеев Р. Музеи Узбекистана и соци- ально-культурные перспективы их развития. – Ташкент: Издательско- полиграфический дом имени Гафура Гуляма. 2007. – 268 с. ва б.

<b>Рискулов Ш.</b> Афғоншунос олимларнинг Афғонистонни тадқиқ қилиш ишларига қўшган ҳиссаслари .....	164
<b>Jumayev G‘.</b> Muarrix G‘iyosiddin Xondamirning «Habib us-siyar fi axbori afrodi al-bashar» asarining o‘rganilishi .....	170
<b>G’oyibnazarova M.</b> Buxoroda ayollar vaqflari tarixshunosligi .....	172
<b>ЭТНОЛОГИЯ ВА ЭТНОГРАФИЯНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ МАСАЛАЛАРИ</b>	
<b>Акчаев Ф., Абдуқодиров С.</b> Жиззах воҳаси гиламдўзлик анъаналарининг ўзига хослиги ва локал хусусиятлари .....	175
<b>Дониёров А., Эшмуҳаматов А.</b> Жиззах худудларида чорвачилик хўжалигининг таркиб топиши ва унинг воҳага хос хусусиятлари .....	178
<b>Нуридинова Т., Удовенко О.</b> О чае и чайных церемониях.....	184
<b>Одилов Б., Рўзиқулов Ш.</b> XX аср охири XXI аср бошлари тадқиқотларида Фаргона водийси аҳолисининг хўжалик – маданий анъаналарини акс этиши.....	188
<b>Askarov M., Isaqov R.</b> XX asr Qoraqalqoq xalq zargarlik hunarmandchiligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.....	194
<b>Abdullaeva M.</b> O‘zbek identikligida ayollar masalasi.....	197
<b>Tugalov B.</b> Ustrushona xalqlari ma’naviy – diniy hayoti xususida.....	200
<b>Utayeva F.</b> To‘qimachilik sanoatining rivojanishi .....	205
<b>Mahmudov A.</b> An’anaviy hunarmandchilikning rivojlanishi va taraqqiy etishi tarixi (pichoqchilik misolida) .....	208
<b>Абиров В.</b> Ўзбек халқининг келиб чиқиши тарихини тадқиқ этишдаги назарий ёндашувлар хусусида .....	211
<b>Зокиров Б.</b> XIX asr Qo‘qon xonligi etnotoponimlarining milliy etnik tarkibi .....	215
<b>Салаев И.</b> XVIII аср охири – XIX аср давомида Хива хонлигини ўрганиш учун юборилган чет элликлар тавсифида Хоразм анъанавий турар жойлари .....	217
<b>Кўлдошев С.</b> “Девону луготит турк”да келтирилган Чавгон ўйини хақида айрим мулоҳазалар.....	222
<b>Kushokav S.</b> Olov kultining tarixiy tahlili.....	224
<b>Shosaidov A.</b> Хонликлар архивларида қозоқ халқининг этник тарихига оид маълумотлар .....	227
<b>Вахидова М.</b> Культурные изменения в узбекской церемониальной кухне .....	230
<b>МАРКАЗИЙ ОСИЁ ТАРИХИНИНГ УМУМИЙ МАСАЛАЛАРИ</b>	
<b>Тураев X.</b> Мадраса как центр Исламского просвещения в Бухаре .....	233
<b>Хасанов Б.</b> Янги Ўзбекистонда шаҳидлар хотирасининг абадийлаштирилиши ва тарихий адолатнинг тикланиши.....	234
<b>Мустафаева Н.</b> Маданият масалаларини тадқиқ этишда назарий-услубий жиҳатлар (Арнольд Тойнби ва Карл Ясперс ёндашувлари асосида) .....	237
<b>Askariy M., Madraimov A.</b> Ikki buyuk saltanat .....	240
<b>Ғаффоров Ш.</b> Темурийлар даври таълим тизимида мадрасалари фаолияти .....	245
<b>Хайдаров И.</b> Ўзбекистоннинг ёқилғи саноати тарихидан (1920-1970 йй).....	250

<b>Сайдов Ш.</b> ХХСР ва РСФСР ўртасидаги дастлабки шартнома қандай имзоланган эди .....	254
<b>Аминов Ҳ.</b> Темурийлар давлатида қайси эътиқодий ва фикҳий мазҳаб амалда бўлган? .....	257
<b>Тўхтабоев Ҳ.</b> Демократик жараёнлар ривожланишига сиёсий элита таъсирининг хусусиятлари .....	261
<b>Темиров Ф., Холова У.</b> Бухоро амирлигига кутубхоначилик .....	266
<b>Хакимова Д.</b> Новый узбекистан начинается с порога школы .....	268
<b>Xolmonova N.</b> Xiva xoni Sherg'ozixon: tarix va talqin .....	272
<b>Адилов Ж.</b> Александр Бекович-Черкасский юриши тарихи Макгаҳан нигоҳида .....	276
<b>Хусанов С.</b> Хива мадрасалари .....	278
<b>Бешимов М.</b> Мангитлар даврида Бухорода маданий ҳаёт .....	281
<b>Шаропов Д.</b> Мангит хукмдори – Амир Шоҳмурод ислоҳотлари .....	283
<b>Boltayev B.</b> O'zbekistonda zamonaliviy muzeylarning tashkil topishi va taraqqiyot istiqbollari .....	286
<b>Бекмурадов С.</b> Чигатой улуси бошқарувида ички ва ташқи зиддиятлар .....	290
<b>Rajabov O.</b> O'rta asrlarda Islom rivojiga hissa qo'shgan buxorolik olimlar .....	296
<b>Наимов И.</b> Табобатда Ибн Синонинг намунаси .....	300
<b>Мирзаев А.</b> Туркистон ўлкаси савдо-саноат ширкатлари фондларида пахтачилик масалаларини ёритилиши .....	304
<b>Хомидов Д.</b> Туркистон муҳториятини тузиш ва унинг фаолиятида Носирхон Тўра Камолхон Тўра ўғлиниң фаолияти .....	307
<b>Авазов Ф.</b> XV асрнинг ўрталарида темурийлар давлатидаги сиёсий вазият .....	310
<b>Иминов Ж.</b> Жадидчи Тошпўлатбек Норбўтабековнинг Боку Съездидаги Совет мустамлакачилигининг танқиди .....	313
<b>Курбонов А.</b> Ўрта Осиёning бронза даври жамоа ибодатхонаси хусусида .....	315
<b>Махкамов А.</b> Бухоро ҳалқ совет республикасининг Афғонистон ва Москвадаги муҳтор вакили Абдураҳим Юсуфзода фаолиятидан .....	318
<b>Omonxonov J.</b> Ismoil Somoniy maqbarasi xususida .....	321
<b>Razzoqov D.</b> Amir Temur va Shoxruh Mirzo davrida xitoydagi min sulolasi bilan savdo-elchilik va diplomatic munosbatlar .....	323
<b>Abdullayev H.</b> Amir Temur diplomatiyasi .....	328

“Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари” // Республика XIV илмий-амалий конференция материаллари. 14-илмий тўплам [Тошкент давлат шарқшунослик университети. Масъул муҳаррир тар.ф.д., проф. М.М.Исҳоқов] Тошкент: 2022.

**Масъул муҳаррир:**

*Тарих фанлари доктори, профессор М.М.Исҳоқов*

**Тақризчилар:**

*Тарих фанлари доктори, профессор Ж.Х.Исмоилова*

*Tap.ф.н., доц. Р.Р.Алимова*

**Таҳрир гурухи:**

**Одилов Б.А., Мадраимов А.А.,**

**Худойназаров И.Б., Бекмурадов С.Т.**

Тошкент давлат шарқшунослик университетининг 2022 йил  
30 апрель куни бўлиб ўтган 9-сонли навбатдан ташқари  
Кенгаши қарорига мувофиқ нашрга тавсия қилинган.

Босишига рухсат этилди: 05.05.2022

Бичими 60x84 1/16 Шартли 21,25 б.т.

100 нусхада босилди. Буюртма №

Тошкент давлат шарқшунослик  
университетининг кичик босмахонаси.

Тошкент, Амир Темур қўчаси, 20 уй.